

Date: 1st July-2026

**MAMLAKAT IQTISODIYOTINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA
“INVESTITSIYA MUHITI” TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI**

Artikbayev Dilshod Mumindjanovich

Izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “investitsiya muhiti” tushunchasining iqtisodiy mohiyati, xorijiy iqtisodchi olimlar, rus olimlari, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan turlicha talqin berilganligi ifodalangan.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическая сущность концепции «инвестиционного климата» и различные ее интерпретации зарубежными экономистами, российскими учеными и отечественными экономистами.

Annotation. This article describes the economic essence of the concept of "investment climate" and its various interpretations by foreign economists, Russian scientists, and domestic economists.

Mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va katta hajmdagi sarmoyalarni jalb qilish uchun O‘zbekiston investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlarning bozorga kirishini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirishi zarur.

“Investitsiya muhiti” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini to‘liq anglab yetish uchun ushbu atamaning turli iqtisodchi-olimlar tomonidan berilgan ta’riflarini ko‘rib o‘tamiz.

Xorijiy iqtisodchi-olimlaridan N.L. Marenkovning bergan ta’rifiga ko‘ra, “Investitsiya muhiti –bu sarmoya kiritishning tavakkalchilik darajasini va undan samarali foydalanish imkoniyatini belgilovchi siyosiy, iqtisodiy, yuridik, ijtimoiy va boshqa omillar to‘plamidir”.[1]

Boshqa bir rus olimi N.V. Igoshin bu tushunchani quyidagicha izohlagan: “Investitsiya muhiti – bu investitsiya jarayoniga maksimal qulaylik tug‘diruvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va yuridik shart-sharoitlar yig‘indisi; mahalliy va xorijiy investorlar uchun bir xilda teng bo‘lgan imkoniyatlar; milliy iqtisodiyotga sarmoya kiritish uchun jozibadorligi bo‘yicha bir xil bo‘lgan shart-sharoitlardir”.[2]

Investitsiya muhiti – bu iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy, shu jumladan tabiiy resurslar, ishchi kuchi, qonunchilik va boshqa shu kabi komponentlarni qamrab oluvchi investitsiya kiritishning obyektiv shartlari kompleksidir. Bu omillarning ba’zilari ma’lum darajada hukumat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqalari bog‘liq emas, masalan, geografik joylashuv, aholi talabi, tashqi bozorlardagi konyuktura kabi omillar investitsiya muhitini belgilab beruvchi elementlar sifatida ko‘rsatilgan qarashlar ham mavjud.

O‘zbek iqtisodchi-olimlaridan A. Vaxabov, SH Xajibakiyev, N. Muminovlar fikriga ko‘ra: “Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo‘yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig‘indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko‘pqirrali



Date: 1st July-2026

tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzдорlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega.[3]

Investitsiya muhiti deganda mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va belgilaydigan shart-sharoitlar mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalar va ta'riflarni umumlashtirgan holda, "investitsiya muhiti" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini berish mumkin deb hisoblaymiz: "Investitsiya muhiti – bu mamlakat investitsiya oqimini belgilovchi barcha omillar (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, demografik, geografik, madaniy, ekologik, tabiiy, hududiy, ilmiy-texnik va boshqa omillar shular jumlasiga kiradi) yig'indisidir".

Xorijiy investorlar o'zlari investitsiya kiritgan yoki kiritmoqchi bo'lgan mamlakatdagi investitsiya siyosati hamda investitsiya muhitiga befarq bo'lmaydilar. Xorijiy investorlar asosan iqtisodiy barqaror, shu bilan birga, investitsiya siyosati yaxshi olib borilayotgan mamlakatlarga o'z e'tiborlarini qaratishadi. Investitsiya siyosati iqtisodiyot samaradorligining oshishi, mahsulot va milliy daromad o'sishining ta'minlanishi bilan bog'liq bo'lgan sarmoya oqimining eng ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi va olib borilayotgan islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mamlakatning investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi muhim omillar quyidagilar:

- Mamlakatdagi siyosiy barqarorlik;
- Iqtisodiyotning ochiqqligi;
- Investitsiya jarayonining institusional va infrastuktura muhitining holati va rivojlanganligi;
- Moliya-kredit tizimining holati;

Bundan tashqari B. Mamatov va S. Yakubovalarning "Qulay investitsiya muhiti – iqtisodiyot taraqqiyotining garovi" nomli ilmiy maqolasida keltirilishicha mamlakatimizdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar, asosan, 4 guruhga bo'linib, ular huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tashkil etadi .[4]

Xulosa qilib aytganda investitsiyalarni kengroq jalb etish bo'yicha iqtisodchi olimlarning ishlab chiqqan atamalari, usul va uslublarining kerakli jihatlarini O'zbekiston sharoitiga tadbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi;

- O'zbekiston uchun ham investitsiya sohasini liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usullarini takomillashtirish orqali uning jozibadorligini oshirish bo'yicha islohotlarni davom ettirish, respublikada erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish bo'yicha huquqiy bazani yanada takomillashtirish yuzasidan xorijiy tajribalardan unumli foydalanish taraqqiyotning garovi hisoblanadi.



Date: 1st July-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маренков Н.Л. Основы управления инвестициями. Уч.-5-изд.-М.: Проспект, 2017. – с.64.
2. Игошин Н.В. Инвестиции: организация, управление, финансирование. Уч.пос. 4-изд.-М.: Юнити-Дана, 2018. –с.60.
3. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: “Moliya”, 2010. 153-bet.
4. Mamatov B., Yakubova S. Qulay investitsiya muhiti – iqtisodiyot taraqqiyotining garovi // Bozor, pul va kredit. 2015-yil 8(219)-son. 46-bet.